KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 33 (563) 2025-YIL, 16-AVGUST

O‘QUV SEMINARI ISHTIROKCHILARIGA LOYIHA DOIRASIDA CHOP ETILGAN GAZETALAR BEPUL TARQATILDI



O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Adolat mezoni” gazetasining “Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati” loyihasi doirasidagi sahifa

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi tomonidan Andijon viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi, viloyat Adliya boshqarmasi va Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat bo‘limlari hamda “Adolat mezoni” gazetasi hamkorligida joriy yilning 13-avgust kuni Andijon davlat chet tillari institutida o‘quv seminari tashkil etildi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-sonli qaroriga asosan “Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining ekologik bilimini oshirish”ga qaratildi.









Seminarda davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlari va xodimlari, partiya faollari, deputatlar hamda yoshlar ishtirok etdilar. Unda ekologik madaniyatni oshirish masalalari va ekologik muammolarning oldini olish bo‘yicha dolzarb mavzular muhokama qilindi.

Tadbir davomida mutasaddilar tomonidan ishtirokchilarga ekologiya va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatni yaxshilash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Seminar ishtirokchilariga O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Adolat mezoni” gazetasining “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli loyiha doirasida maxsus sahifa chop etilgan 2025-yil 13-avgust kungi 32-sonidan bepul tarqatildi.

M.MAMATQULOV,
O‘EP Andijon viloyat Kengashi matbuot kotibi.

(Sahifani davomi 2-betda).

Jinoyatga jazo muqarrar

BADNAFSLIK TUZOG‘I

Murodullo ABDUXAKIMOV,
Andijon viloyat prokurori.

Korrupsiya – iqtisodiyotimiz rivojiga to‘siq, jamiyat taraqqiyotining kushandasi. Korrupsiya demokratiya va huquq ustuvorligiga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizmning ko‘payishi uchun sharoit yaratib beradi. Shu sababli ham global muammolar orasida korrupsiya alohida o‘rin egallaydi.

Mamlakatlarning iqtisodiy darajasi va siyosiy tuzilishi har xil bo‘lsa ham korrupsiya barcha mamlakatlar uchun odatiy hol hisoblanadi.

O‘zbekistonda mazkur muammoni bartaraf etish siyosati yuritilmoqda. Jumladan, «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi va «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilingani hamda davlat xaridlari doirasida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan shaffof tartib o‘rnatilgani, 2017–2018 va 2018–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi tasdiqlangani va amalga oshirilgani, 2021–2025-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi tasdiqlangani, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil qilingani, davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi soddalashtirilgani, barcha davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining ochiqligi ta’minlanayotgani O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi jiddiy kurashayotganining isbotidir. Shu sababli ham O‘zbekiston xalqaro reytingda qatorasiga to‘rt yil davomida barqaror o‘sishga erishdi.

(Davomi 2-betda).

Tayinlov

MAJBURIY IJRO BYUROSINING ANDIJON VILOYAT BOSHQARMASIGA YANGI RAHBAR TAYINLANDI



O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyrug‘i bilan Azamat Sodikovich Ishonkulov Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi Andijon viloyat boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga tayinlandi. Bungacha ushbu lavozimda Ayubxon Alimov faoliyat yuritgandi.

A.Ishonkulov 1979-yil Samarqand viloyatida tug‘ilgan. Ish faoliyatini 2005-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Orol tabiatni muhofaza qilish prokurorining yordamchisi lavozimida ish o‘rganuvchi vazifasida boshlagan.

2012-2017-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi organlarida turli lavozimlarda davom ettirgan. Jumladan, Xo‘jayli tuman prokurori lavozimida ham ish olib borgan.

Byuro organlarida ish faoliyatini 2017-yilda boshqarma bosh inspektori sifatida boshlagan, so‘ngra boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari lavozimiga tayinlangan.

Mazkur tayinlovga qadar, A.Ishonkulov Byuroning bo‘lim boshlig‘i lavozimida ishlab kelayotgan edi.

Tadbir

JOYLARDA KITOB YARMARKALARI TASHKIL ETILDI



Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar orasida kitob mutolaasini ommalashtirish orqali ularning fikrlash qobiliyatini yanada yuksaltirish maqsadida, turli ko‘rik-tanlov va musobaqalar hamda kitob ko‘rgazmalari o‘tkazib kelinmoqda.

Jumladan, Andijon viloyatida joylashgan harbiy qismda ham shaxsiy tarkibning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilim darajasi va dunyoqarashini boyitish maqsadida kitob yarmarkasi tashkil etildi.

Mahalliy kitob do‘konlari bilan hamkorlikda o‘tkazilgan ushbu yarmarkada jahon va milliy adabiyotimizning eng sara durdonalariga aylangan kitoblar harbiy xizmatchilar e’tiboriga havola qilindi.

T. ULMASOV,
DXX ChQ harbiy xizmatchisi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

BADNAFSLIK TUZOG‘I



Murodullo ABDUXAKIMOV,
Andijon viloyat prokurori.

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2020-yildan e’tiboran mamlakatimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy kengashlar tuzilib, faoliyat yuritib kelayotgani fikrimizning tasdig‘idir.

Joriy yilning 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Korrupsiya xalqning davlatga va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi”, deya ta’kidladi prezident Shavkat Mirziyoyev.

Aynan shu yig‘ilishda bu jinoyatga barham berish vazifasi qo‘yilgan edi. Shu maqsadda, Prezidentning 21-apreldagi farmoni bilan, Bosh prokuraturada korrupsiya omillarini tahlil qilish bo‘limi tashkil qilindi. Hududlarga muntazam chiqib, bunday omillar o‘rganib borilmoqda.

29-iyul kuni Prezident maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir taqdimot bilan tanishdi. «Har kuni odamlarning ishi tushadigan hokimlik, kadastr, bank va soliq idoralarida „korrupsiyaviy tuynuklar“ to‘liq yo‘qolgani yo‘q», — dedi prezident Shavkat Mirziyoyev.

Prokuratura tizimini to‘liq raqamlashtirish va barcha sohalar ustidan «raqamli nazorat» o‘rnatish zarurligi ta’kidlandi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirish, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, sohalarni raqamlashtirish va jamoatchilik nazoratini kengroq tatbiq etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali usullaridan foydalanish albatta o‘z samarasini beradi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlashni istardim. Korrupsiyaga qarshi kurashda har bir fuqaro o‘z huquq va majburiyatlarini anglagan holda harakat qilsagina ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Lekin afsuski, oramizda pora olish jinoyatini sodir etayotganlar hamon uchrab turibdi.

Nafsining quliga aylanib qolgan kishi har qancha tipirchilab, o‘zini har tomonga urmasin, undan qutulishi qiyin. Vijdon bilan kurashda g‘alaba qilgan nafs sabru qanoatni mahv etib, o‘z sohibini jinoyat ko‘chasi tomon yetaklaydi. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama faoliyatini tartibga solish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Malik Aliyev faqat o‘zini, nafsini o‘yladi.

U halol topayotganiga qanoat qilmay, qulay fursat tug‘ilganda nopok yo‘l bilan kelayotgan daromadga ko‘z tikdi.

Malik lavozim yo‘riqnomasiga asosan dori vositalari va tibbiyot buyumlari uchun belgilangan ulgurji va chakana savdo ustamalariga rioya qilinishi ustidan nazorat tadbirlarida, tekshirishlarda ishtirok etish hamda boshqa vakolatlar berilganligi holatidan qasddan foydalanadi. U o‘ziga biriktirilgan kompyuterdagi dasturga dori narx nazorati maxsus tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog‘ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4554-sonli Qaroriga asosan qabul qilingan Sog‘liqni saqlash vazirining 2020-yil 24-martdagi 115-sonli (Adliya vazirligida 2020-yil 10-iyunda 3242-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Referent narx shakllantirish tizimi doirasida dori vositalari narxlarini qayd etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan referent narxlaridan yuqori sotilganligi haqida kelib tushgan ma’lumotlarni o‘rganadi.

-Mana izlaganimni topdim, - deya quvonib ketadi. Chunki dasturda viloyat hududidagi dorixonalardan birida ancha miqdordagi dori vositalari yuqori narxda sotilgani ko‘rsatilgan edi.

Malikda esa yuqori narxda sotilgan dori vositalar uchun undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni kamaytirishga vakolati bor. U shu vakolatdan foydalanib mulkiy manfaatdor bo‘lish haqida jinoiy reja tuzadi.

Malik jinoiy rejasini amalga oshirish maqsadida Shahrixon tumanida ro‘yxatga olingan mas’uliyati cheklangan jamiyatlardan biriga qarashli dorixonalarda 2023-yilning noyabr-dekabr va 2024-yilning yanvar-fevral oylari davomida sotilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari uchun hisoblangan 1.998.369.070 so‘mlik, shundan ulgurji xaridorlarga 300 ta holatda 134.380.760 so‘mlik hamda 3935 ta holatda chakana savdo orqali 1.863.988.310 so‘mlik dorilar referent narxlardan yuqori sotilganligi haqida kelib tushgan ma’lumotlarni olib, bu ma’lumotlarni jamiyat ish boshqaruvchisi Bahodir Mamajonovga tanishtirish uchun taqdim etadi.

Malik shundan so‘ng 2024-yilning fevral oyi oxirlarida u dori vositalari va tibbiyot buyumlarini referent narxlardan yuqori sotilganligi natijasida kelib chiqqan 1.998.369.070 so‘m mablag‘larni Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining byudjetdan tashqari jamg‘armasiga o‘tkazib berishni jamiyat rahbaridan talab qilgan.

Jamiyat ish boshqaruvchisi Bahodir sodir bo‘lgan holatni jamiyatni hisobchisi Fazliddin Ayupovga ma’lum qilgan vaqtida, Fazliddin muqaddam Malik bilan birga ishlaganligini, ushbu masalada u bilan uchrashib, yordam so‘rashini bildiradi.

Shundan so‘ng, Fazliddin 2024-yilning fevral oyi oxirlarida Malik bilan uchrashgan vaqtida, u dori vositalari va tibbiyot buyumlarini referent narxlardan yuqori sotilganligi natijasida kelib chiqqan 1.998.369.070 so‘m mablag‘larni yo‘qotib berish evaziga pora tariqasida 30.000 AQSH dollarini talab qilgan.

Bahodirni bu holatni o‘zi o‘rganganida ularni jamiyatga nazorat kassa mashinasini yetkazib bergan subyekt uning xotirasiga faqat bitta dori vositasi, ya’ni “Azitromitsin” tabletkasi kiritilib, uning narxi 12.410 so‘mini tashkil qilgani, ularning jamiyatdan turli xildagi dorilar sotilgan bo‘lsa-da, kassa mashinkasida savdo puli ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, ushbu summaga faqat 1 upakovka “Azitromitsin” tabletkasi sotilganligi qayd etilib borilavergani, shu tariqa referent narxdan yuqori summa paydo bo‘lganini aniqlaydi.

Bahodir M. Aliyevga kassa mashinkasi faqat bir dori vositasini urib berganini, shu sababli yuqori narx chiqib kelganini aytgani hamda hujjatlarni taqdim etadi.

Malik esa taqdim qilingan cheklarni ko‘rib berishga ulgurmasligini aytib, bir oylik zararni yo‘q qilib berish uchun 7.500 AQSH dollari olib kelib berishini va qolgan harakatlarni keyin gaplashib olishlarini aytgani va pullarni Fazliddin olib kelib berishini aytadi. Shundan so‘ng u Malikning bosimi ta’sirida jamiyatiga zarar yetib qolmasligi va jamiyatini litsenziyasi bekor bo‘lib ketmasligi uchun u talab qilgan 7.500 AQSH dollarini Fazliddin orqali Malikka beradi.

Malik o‘zining jinoiy harakatlarini davom ettirib, 7.500 AQSH dollarini pora tariqasida olganidan so‘ng, 2024-yilning 7 va 11-mart kunlari Bahodir va Fazliddinlarga telefon orqali aloqaga chiqib, qolgan 22.500 AQSH dollarini olib kelishni talab qilgan.

Ish yurituvchining vijdoni bunga yo‘l qo‘ymadi. Malikning qonunga zid harakatlari haqida tegishli joyga ariza bilan murojaat qiladi.

13-mart kuni Malik Aliyev Andijon shahri, Do‘stlik MFY, Toshkent ko‘chasida joylashgan “MEGAPOLIS” savdo markazi oldiga talab qilgan pullardan qolgan 22.500 juda ko‘p miqdordagi AQSH dollarini Bahodirdan tamagirlik yo‘li bilan olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlandi. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi ochilib, tergov olib borildi. Yakunida ayblov xulosasi bilan sudga taqdim etildi.

Sudda Malik Aliyev va Fazliddin Ayupovlar qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon ekanini bildirib, qonuniy yengillik so‘radi.

Sud hukmi bilan Malik Aliyev O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 210-moddasi 3-qismining “a” bandi bilan aybli deb topildi. Unga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 210-moddasi 3-qismining “a” bandi bilan Jinoyat kodeksining 45, 57-moddalarini qo‘llab, 3 yil muddatga davlat ishtirokidagi korxona, tashkilot va muassasalarda mansabdorlik va moddiy javobgarlik yuklatilgan vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilib, 8 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Sud hukmi bilan Fazliddin Ayupov ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 212-moddasining 1-qismi bilan aybli deb topildi.

Unga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 212-moddasining 1-qismi bilan Jinoyat kodeksining 45-moddasini qo‘llab, 2 yil muddatga davlat ishtirokidagi korxona, tashkilot va muassasalarda mansabdorlik va moddiy javobgarlik vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilib, 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 60-61-moddasi tartibida mazkur hukm bilan tayinlangan jazoga jinoyat ishlari bo‘yicha Andijon shahar sudining 2023-yil 24-yanvardagi hukmi bilan tayinlangan jazolarni o‘talmay qolgan jazo muddatlarini qisman qo‘shish yo‘li bilan F.Ayupovga uzil-kesil o‘tash uchun 2 yil 1 oy muddatga davlat ishtirokidagi korxona, tashkilot va muassasalarda mansabdorlik va moddiy javobgarlik vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilib, 3 yil 1 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Noqonuniy qilmish kuni kelib fosh bo‘lishi tayin. O‘z burchini adolat bilan to‘laqonli ado etish o‘rniga odamlardan pora talab qilib, ularning qo‘liga qaraydigan davlat xodimlari kuni kelib jazoga tortilishi muqarrar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, fuqarolarning Konstitutsiyada ko‘rsatilgan huquq va erkinliklarini himoya qilinishi, ularning hayot darajasi yaxshilanishiga, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishiga olib keladi deb ishonch bilan aytish mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, ayni paytda mamlakatimizda jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishning barcha huquqiy asoslari yaratilgan. Faqat bu jarayonda yurtdoshlarimizdan hushyorlik va mas’uliyat talab etiladi, xolos. Shundagina mamlakatimiz bundan-da taraqqiy etib, odamlarimizning turmushi farovonlashib boraveradi.

SAN’AT

“DUNYO SADOLARI” FESTIVALI



Kecha Andijonning eng xushmanzara kenti, Farg‘ona vodiysining turizm markaziga aylanayotgan Xonobod shahrida “Dunyo sadolari” III xalqaro milliy estrada san’ati festivali boshlandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizning milliy estrada san’atini dunyoga tanitish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, mamlakatimiz, xususan, Xonobod shahrining turizm salohiyatini keng targ‘ib etish, xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish, qolaversa, mamlakatimiz mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayrami oldidan yurtdoshlarimizga xush va ko‘tarinki kayfiyat ulashish maqsadida mamlakatimizda uchinchi bor o‘tkazilayotgan “Dunyo sadolari” xalqaro milliy estrada san’ati festivalida dunyoning qator davlatlaridan estrada san’ati guruhlari, xonandalari, shuningdek, mamlakatimiz estrada san’ati yulduzlari ishtirok etadi.

–Festivalni yuqori saviyada o‘tkazish uchun zarur barcha tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi, – deydi Andijon viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov. – Qiziqarli va rang-barang dasturlarga boy festival ishonamanki, ishtirokchilar, hamshaharlarimiz, shahrimiz mehmonlari qalbida unutilmas taassurotlar qoldiradi.

Festival ishtirokchi va mehmonlarining xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, yo‘l va transport vositalari tirbandligi kelib chiqishining oldini olish yuzasidan zarur choralar ko‘rildi. Xonobod shahridagi ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan barcha hududlarga, yo‘l va chorrahalarga kuzatuv kameralari o‘rnatildi, Wi-Fi internet zonasi tashkil etildi, mehmonlarga xizmat ko‘rsatuvchi gid va volontyorlar guruhlari shakllantirildi. Shaharning turli hududlarida milliy va Yevropa taomlari tayyorlaydigan ko‘plab oshxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, bankomatlar, ixcham, zamonaviy biohojatxonalar o‘rnatildi.

Aholi, sayyohlar va yurtimiz mehmonlarining Xonobod shahriga xavfsiz borishi, kelishi uchun Andijon – Xonobod avtomobil yo‘lida og‘ir yuk mashinalari, qishloq xo‘jaligi texnikalari qatnovi bir necha kunga cheklandi.

Eslatib o‘tamiz, 15-17-avgust kunlari bo‘lib o‘tadigan “Dunyo sadolari” III xalqaro milliy estrada san’ati festivalida yurtimiz estrada yulduzlari bilan bir qatorda Eronda tug‘ilib, Yevropada faoliyat olib borayotgan, «Yevrovideniye-2009» tanlovi sovrindori Arash (Arash Labafzoda), hindistonlik pop-qo‘shiqchi Alisha Chinay, turkiyalik mashhur qo‘shiqchi Mustafa Sandal singari jahon estrada san’ati yulduzlari ishtirok etadi. Shuningdek, festivalda o‘zbek estradasi vakillari Munisa Rizayeva, Sevinch Mo‘minova, Imron, Setora, Shohruhxon, Jaloliddin Ahmadaliyev kabilar chiqish qilishi kutilmoqda.

F. UBAYDULLAYEV,
Z. UMRZOQOV (surat),
O‘zA muxbirlari.

«XONOBOD OPEN»

TURNIR G‘OLIBI AVTOMASHINA BILAN TAQDIRLANDI



Mamlakatimiz mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi oldidan kurash bo‘yicha Andijon viloyat prokurori kubogi uchun o‘tkazilgan “Xonobod Open” respublika ochiq turniri yakuniga yetdi.

Yurtimizda sportning kurash turini ommalashtirish va rivojlantirish, mustaqillik bayrami oldidan yurtdoshlarimiz, kurash muxlislariga xush va bayramona kayfiyat ulashish maqsadida o‘tkazilgan respublika ochiq turnirida mamlakatimizning barcha hududlaridan eng kuchli kurashchilar ishtirok etib, g‘oliblik uchun bahs olib bordi.

Qator vazn toifalarida bir necha kun davom etgan kurash musobaqasi qizg‘in bellashuvlarga boy bo‘ldi.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko‘ra, Bekmurod Oltiboyev, Sherali Jo‘rayev, Botir Xoliyorov, Shohruxxon Baxtiyorov o‘z vazn toifasida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

G‘oliblarni taqdirlash marosimida Andijon viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov, viloyat prokurori Murodullo Abduhakimov qatnashib, g‘olib va sovrindorlarni muborakbod etdi, ularga tegishli medal va sovg‘alarni topshirdi.

Turnirda mutlaq vazn toifasida g‘olib bo‘lgan kurashchi Bekmurod Oltiboyev “Kobalt” avtomashinasi, 2- o‘rin sohibi 40 million so‘m, uchinchi o‘rinni egallagan kurashchi 15 million so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandi.

D.ABDUMAJIDOVA,
«Adolat mezoni” muxbiri.
Z. UMRZOQOV (surat).

SUD EKSPERTIZASI

SUD TRANSPORT-IZSHUNOSLIK EKSPERTIZASIDA QANDAY MASALALAR HAL ETILADI?

Yo‘l-transport hodisasiga uchragan transport vositalarini sud transport-izshunoslik ekspertizasi mutaxassisligida tadqiq qilish – bu murakkab va maxsus bilimlarni talab qiladigan jarayon bo‘lib, surishtiruv, tergov yoki sud jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud transport-izshunoslik ekspertizasida yo‘l-transport hodisasining aniq holatini, sabablarini, transport vositalari o‘rtasidagi to‘qnashuv qay tarzda sodir bo‘lganligi, to‘qnashuv burchagi, transport vositalari to‘qnashuv vaqtida harakatda bo‘lgan, to‘xtab turgan yoki orqaga harakatlanganligi, to‘qnashuv yo‘lni qaysi tarafida yoki qaysi qismida sodir etilganligi, transport vositalarining to‘qnashuviga qadar, to‘qnashuvi vaqtida va to‘qnashganidan keyingi harakat yo‘nalishlari, to‘qnashuv vaqtida aynan qaysi transport vositasi harakat yo‘nalishini qaysi tomonga o‘zgartirganligi, transport vositalarini to‘qnashuv vaqtidagi holatlari bo‘yicha modellashtirilgan chizmalar aks ettirilishi kabi masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib boriladi.

Yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan joyni chizmasi, hodisa sodir etilgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi, hodisa joyini fotosuratlari, transport vositalarini ko‘zdan kechirish haqida bayonnomalar, hodisa bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar, to‘qnashuv sodir etgan transport vositalari (avtomobil, mototsikl, skuter, velosiped va boshqalar) sud transport-izshunoslik ekspertizasi obyektlari hisoblanadi.

Sud transport-izshunoslik ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish jarayonida sud eksperti tomonidan transport vositalarini ko‘zdan kechirish orqali to‘qnashuv natijasida yuzaga kelgan texnik iz va shikastlar, ularning o‘lchamlari, bir-biriga va yer sathiga nisbatan joylashuvlari, izlarning deformatsiya kuchining yo‘nalishi o‘rganiladi.

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza Markazining Andijon viloyati bo‘limi hozirgi kunda yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan ekspertizalarni o‘tkazish bo‘yicha zamonaviy jihozlar va dasturiy ta’minotlar bilan to‘liq ta’minlangan bo‘lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mazkur soha yuzasidan tayinlagan qaror va ajrimlariga asosan tadqiqotlar o‘tkazilib, sud ekspertiza xulosalari berilishi to‘liq yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan sud ekspertlari tomonidan mutaxassis fikrini berish tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, mazkur qaror orqali jismoniy va yuridik shaxslarga sud ekspertizasi muassasalari tomonidan mutaxassis fikri berish jarayoni huquqiy asoslar bilan tartibga solindi.

Hozirgi kunda X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza Markazining Andijon viloyati bo‘limi sud ekspertlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sud ekspertizasi o‘tkazilishi yuzasidan tayinlagan qaror va ajrimlarini ijro etish bilan bir qatorda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan ham tadqiqotlar o‘tkazilib kelinmoqda.

Shoxrux PATIDINOV,
X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza Markazining Andijon viloyati bo‘limi boshlig‘i.

IJTIMOIY XIZMAT

NOGIRONLIGI BO‘LGAN FUQAROLARNING BANDLIGINI TA’MINLASH BORASIDA SAMARALI ISHLAR OLIB BORILMOQDA

Jamiyatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarga doimo alohida ahamiyat qaratib kelingan. Xususan, ularning mehnat qilishlariga sharoit yaratib berilishi va bu borada tegishli qarorlarning qabul qilinishi bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-may kungi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-85-son Farmoniga asosan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturiga muvofiq nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi salbiy omillarni bartaraf etish, ularni kasb-hunarga o‘rgatish va bandligiga ko‘maklashish orqali jamiyatning faol ishtirokchisiga aylanishini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-iyul kungi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi 405-sonli qarorida belgilab o‘tilgan imtiyozlarni ta’kidlab o‘tish joiz.

Sohadagi qaror va farmonlar ijrosini ta’minlash maqsadida Andijon tumanida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Tumanda jami 8178 nafar nogironligi bo‘lgan fuqarolar istiqomat qiladi. Ular bilan o‘tkazilgan muloqotlar, o‘rganishlar davomida ularning mehnat qilishga ishtiyoqlari aniqlandi.

Joriy yil boshida tumanda 558 nafar nogironligi bo‘lgan shaxslarni bandligini ta’minlash rejalashtirilgan bo‘lib, shu kunga qadar tumanda nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta’minlash 442 nafarni ya’ni rejaga nisbatan 79 foizni tashkil qiladi.

Bugungi kunda ularning. 224 nafari qishloq xo‘jaligi 1 nafari madaniyat, 35 nafari Maktabgacha va maktab ta’limi, 175 nafari xususiy tadbirkorlar va MCHJlarga, 7 nafari suv inshootlari va gidromelioratsiya sohalarida faoliyat olib bormoqdalar.

Jumladan, Do‘stlik MFY hududida istiqomat qiluvchi nogironligi bo‘lgan fuqarolar 125 nafarni tashkil qiladi.

Ana shu fuqarolar o‘rtasida mahalla kesimida monitoring olib borilib, ularning ishlash istaklari o‘rganildi.

Natijada, bugungi kun holatiga 42 nafar ishlash istagi bor nogironligi bo‘lgan fuqarolar aniqlandi.

Aniqlangan fuqarolardan 10 nafarining bugungi kunda bandligi ta’minlandi. Ikromjon Iminov “KONTAKTK AZIA” MCHJda yordamchi ishchi sifatida ish boshlaganidan mamnun. Zulfiyaxon Nazarova 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabiga o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi sifatida jamoaga qabul qilindi. Muhammadyusuf Anvarov “Milana” tekstil MCHJda yordamchi ishchi, Sayidjon Qodirov “DINAR EXIM” MCHJda payvandlash bo‘yicha usta, Saidaxon Zokirova “ANDIJAN BUSINESS BRIGHT FUTURE” MCHJda ishchi, Abduvali Nizomiddinov “Yog‘du ziynati” MCHJda yordamchi ishchi, Maftuna Ne’matova 16-sonli umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotiga yordamchi o‘quv xodimi lavozimlariga ishga qabul qilindilar.

Bandligi ta’minlangan bu kabi ko‘plab nogironligi bor fuqarolar albatta, yurtimizda ularga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikdan mamnun holda mehnat qilmoqdalar.

Hozirda ishlash istagida bo‘lgan barcha nogironligi bo‘lgan fuqarolar bandligini ta’minlash uchun korxona va tashkilotlar bilan birga ish tashkil etilib, amaliy harakatlar davom etmoqda.

Sardorbek MUTALIBOV,
Andijon tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori.

“QO‘RG‘ONTEPA DON MAHSULOTLARI” AЖ АКЦИЯДОРЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

“Qo‘rg‘ontepa don mahsulotlari” AЖ акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилишини 2025 йил 4 сентябрь куни соат 10-00 да Андижон вилояти, Қўрғонтепа тумани, Юксалиш МФЙ, Бобурийлар кўчаси, 100-уйда жамият маъмурият биносида ўтказилади. Акциядорларни рўйхатга олиш соат 9.00 да бошланади.

КУН ТАРТИБИ:

1. Жамиятга тижорат банкларидан кредит маблағи олиш тўғрисида.

2. Жамият Кузатув кенгаши аъзоларининг ўз вазифаларини бажариб турган давр учун тўланадиган ҳақ миқдорини белгилаш бўйича Низомига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш;

3. Жамият бошқарув раисини сайлаш тўғрисида.

4. Жамият ҳудудига музлаткич (холодильник) қуриш.

Навбатдан ташқари Умумий йиғилишда қатнашиш акциядорлар шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар билан келишлари, вакиллар, жумладан ҳуқуқий шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда расмийлаштирилган ваколатнома, жисмоний шахслар эса нотариал тартибда тасдиқланган ваколатномалар асосида қатнашишлари лозимлигини билдирамиз.

Акциядорларга тақдим этилиши лозим бўлган,умумий йиғилиш ўтказилиши билан боғлиқ маълумотлар жамият Кузатув кенгаши ва қуйидаги электрон ва веб сайтдан олишлари мумкин.

Манзил: Андижон вилояти, Қўрғонтепа тумани, Юксалиш МФЙ, Бобурийлар кўчаси 100 – уй.

web.sait: kurgantepadon.uz el.pochta: kurgantepadon@mail.ru


Акциядорларга умумий йиғилиш ўтказилиши ҳақидаги хабар бериш учун акциядорлар реестри 2025 йил 12 август ҳолатига ҳамда йиғилишда қатнашиш учун 2025 йил 27 август ҳолатига тузилади.

Реестрни ёпишга қарор қилган орган: Кузатув кенгаши

Бир чимдим кулгу

“ЛОЙГА БОТГАН” ТАЛАБАЛАР

Уч талаба имтиҳонга яхши тайёргарлик кўришмагани учун ўзларича режа тузишибди. Улар имтиҳон куни уст-бошларига лой сачратиб, кечроқ келишибди. “Устоз, узр, тўйга боргандик, қайтишда биз ўтирган машина лойга ботиб қолди. Уни лойдан чиқаргунимизча шу аҳволга тушдик”, дейишибди улар.



Ўқитувчи уч кундан сўнг улардан имтиҳон олишини айтиб, уйларига кетишга рухсат берибди. Уч кундан кейин пухта тайёргарлик кўрган талабалар имтиҳонга келишибди.

Ўқитувчи уларнинг ҳар бирини алоҳида-алоҳида хоналарга киргизибди ва имтиҳон варақасидаги ушбу тўртта саволга жавоб беришлари кераклигини айтибди:

1. Кимнинг тўйи бўлди? (тўғри жавоб учун 25 балл)

2. Тўй қаерда бўлди? (тўғри жавоб учун 25 балл)

3. Машина қаерда лойга ботиб қолди? (тўғри жавоб учун 25 балл)

4. Машинанинг русуми ва ранги қанақа эди? (тўғри жавоб учун 25 балл)

Барчангизнинг жавобингиз бир хил бўлиши шарт!!! Эшитишимизча, талабалар бу саволларга ҳали ҳам жавоб топа олишмабди.

Дилшодбек АСҚАРОВ таржимаси.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 1992 йил 18 декабрь куни вафот этган марҳум ИГАМБЕРДИЕВ РАИМДЖАНнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Истиқлол шохкўчаси, 6-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус О.А.Гафуров нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, 2 тор Суджаат кўчаси, 19-уйда яшаб, 2021 йил 8 август куни вафот этган марҳум ИГАМБЕРДИЕВ ЎКТАМ РУСТАМОВИЧнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2014 йил 1 сентябрь куни вафот этган марҳум DJALILOV XABIBULLA XAMITJANOVICHнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Рахимов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 26 октябрь куни вафот этган марҳум ASKAROV RASULJON MIRZAKOSIMOVICHнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Акбаров нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Истиқлол МФЙ, Ором кўчаси, 45-уйда яшаб, 2025 йил 21 март куни вафот этган марҳум ТУРАБОЕВА ЗАМИРАХОН ЭРГАШОВНАнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Шомат МФЙ, Ипак йўли кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 9 январь куни вафот этган марҳум ШОКИРОВ ХАСАНЖОН ХАМЗАЕВИЧ,

Марҳамат тумани, Дўстлик МФЙ, Бадавлат кўчасидаги уйда яшаб, 2021 йил 29 март куни вафот этган марҳум АРТИКОВА САВРИХОНларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шохкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари мумкин.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 15.08.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 15.08.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li